

Xalq ijodiyoti fakulteti  
rahbariyati, professor-  
o'qituvchilari tomonidan yana  
bir xayrli ishga qo'l urildi

Saxovatpeshalik, ehtiyojmand kishilarni qo'llab-quvvatlash,  
muhtojlarga yordam ko'rsatish azaldan xalqimizga xos  
udumlardan biri.

Bugungi kunda ham O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshevning tashabbusi bilan ushbu an'analarga sodiq qolingani holda mehr-muruvvat tadbirlari davom ettirilib kelinmoqda.

Barchamiz uchun muqaddas bo'lgan Ramazon oyida talabalar turar joyida yashaydigan o'g'il-qizlar uchun iftorlikka an'anaviy ravishda tuxum tarqatish tadbirlari amalga oshirildi. Bundan tashqari qo'y so'yilib, doshqozonlarda oshlar damlanib, talabalarning iftorlik dasturxoniga tuhfa qilindi.

Ushbu an'ana davom ettirilib, bugun Xalq ijodiyoti fakulteti rahbariyati, professor-o'qituvchilari tomonidan yana bir xayrli ishga qo'l urildi.



Saxovatpesha jamoa tomonidan ikkita qo'y so'yildi. Qopda guruch olib kelindi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev tashabbus bilan yo'lga qo'yilgan an'anaga ko'ra, ushbu oziq-ovqat mahsulotlari muqaddas Ro'zai Ramazon kunlarida institutda faoliyat olib borayotgan ishchi- xodimlarga bepul tarqatildi.

Maqsad– ularning iftorlik dasturxoni to‘kinligiga imkon qadar yordam berish, tobora yaqinlashib kelayotgan Ramazon bayramida ko‘ngillarini ko‘tarish, qalblariga xursandchilik ulashish.

**Matbuot kotibi**